RIKU odam savdosi yoki shunga o‘xshash ekspluatatsiya qurbonlari uchun maxsus xizmat ko‘rsatadi

Quyidagi holatlarda biz bilan bog‘laning:

- Siz aldov yo‘li bilan undan chiqishga urinsangiz muammoga duch kelishingiz mumkin bo‘lgan vaziyatga tushib qolgansiz.
- Kimdir sizdan foydalanmoqda, masalan, sizga juda kam maosh to‘layapti, sizni majburlash yoki manipulyatsiya orqali jinsiy xizmatlar ko‘rsatishga, jinoyat sodir etishga yoki o‘z xohishingizga qarshi boshqa biror ish qilishga undayapti.
- Kimdir nima qilishingizni, qayerga borishingizni, kim bilan gaplashishingizni yoki pulingizdan qanday foydalanishingizni nazorat qilmoqda.
- Kimdir sizni bosim o‘tkazish yoki tahdid qilish orqali o‘ziga bo‘ysundirishga urinmoqda, masalan, biror shaxsiy ma’lumotlaringizni oshkor qilish, sizni deportatsiya qildirish, hokimiyat organlariga xabar berish yoki sizga yoxud oila a’zolaringizga zarar yetkazish bilan qo‘rqitmoqda.
- Kimdir sizdan Finlyandiyaga kelishingiz uchun, masalan, ish topib berish yoki viza rasmiylashtirish uchun pul olgan.
- Siz muntazam ravishda kuniga 8 soatdan ortiq yoki kechki vaqtlarda qo‘shimcha haq to‘lanmasdan ishlaysiz; haftasiga o‘rtacha 2 kundan kam dam olasiz yoki sizga haq to‘lanadigan kasallik ta’tili va yillik mehnat ta’tili berilmaydi.
- Agar nikohingiz yoki munosabatingizni tark etsangiz, kimdir sizga zarar yetkazishidan qo‘rqasiz yoki siz bu munosabatlarga majburan kiritilgansiz.

Agar yuqoridagilardan birortasi sizga tegishli bo‘lsa yoki siz o‘zingiz yoki yaqinlaringizdan biri odam savdosi yoki shunga o‘xshash ekspluatatsiya qurboni bo‘lishi mumkin deb gumon qilsangiz, iltimos, biz bilan telefon yoki xabar orqali bog‘laning.

+358 40 632 9293

raqamiga qo‘ng‘iroq qiling yoki

help@riku.fi elektron pochta manziliga xat yozing

RIKU

RIKOSUHRIPÄIVYSTYS
VICTIM SUPPORT FINLAND

Finlyandiya Jabrlanuvchilarni Qo‘llab-quvvatlash Xizmati (RIKU)

jinoyat qurbonlariga, ularning yaqinlariga hamda jinoyat guvohlariga maslahat beradi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi.

ONLAYN

TELEFON ORQALI

YUZMA-YUZ

Quyidagi hollarda maslahat va yordam olish uchun Finlyandiya Jabrlanuvchilarni Qo‘llab-quvvatlash Xizmati (RIKU) bilan bog‘laning:

- Agar siz jinoyat qurboni bo‘lsangiz yoki o‘zingizni jinoyat qurboni deb gumon qilsangiz.
- Agar siz jinoyatga guvoh bo‘lgan bo‘lsangiz.
- Agar sizning yaqinlaringizdan biri jinoyat qurboni bo‘lsa.

Bizning xizmatlarimiz butunlay maxfiydir. Siz jinoyat haqida rasmiy ariza berish yoki bermaslik haqida o‘ylab yurgan bo‘lsangiz ham, biz bilan bog‘lanishingiz mumkin. Biz sizga bu jarayon nimani anglatishini tushuntirib bera olamiz va agar shunday qaror qilsangiz, jinoyat to‘g‘risida ariza berishda yordam bera olamiz.

E’tibor bering:

- Sizning ruxsatingizsiz siz yoki ishingiz haqidagi ma’lumotlarni hech kimga bermaymiz.
- Biz bilan bog‘langaningizda, ishingiz tafsilotlarini aytib berishingiz shart emas.
- Agar siz fin, shved yoki ingliz tillarida gaplashmasangiz, biz har doim maxfiylikka rioya qiladigan professional tarjimonlardan foydalanamiz.

ONLAYN

→ **Riku.fi/trafficking**

→ **Riku.fi/labor-exploitation**

Agar ish joyingizda odam savdosi yoki ekspluatatsiyaga duch kelayotganingizdan shubhalansangiz, maxfiy maslahat va yordam olish uchun **help@riku.fi** elektron pochta manziliga murojaat qiling.

TELEFON ORQALI

Odam savdosi va shunga o‘xshash ekspluatatsiya qurbonlari uchun yordam telefon linyasi:
+358 40 632 9293

Dushanbadan jumagacha, soat 13:00 dan 16:00 gacha
Qo‘ng‘iroq qiling yoki xabar yuboring.

YUZMA-YUZ

Zarurat tug‘ilganda, siz bilan RIKU ofislaridan birida uchrashishimiz mumkin.

Imkoniyat mavjud bo‘lganda, sizga politsiya bo‘limiga yoki sudga borishda hamrohlik qiladigan maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan qo‘llab-quvvatlovchi shaxsni taqdim etamiz.

Siz biz bilan o‘z ona tilingizda bog‘lanishingiz mumkin.

RIKU siyosiy yoki diniy tashkilotlar bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqil nodavlat notijorat tashkilotidir (NNT).